

Adabiyot maydonida bir qadar ko'zga tashlanib qolgan yosh shoira Irodaxonning keksa adib bilan tanishib, ustoz sifatida aloqa bog'lagani Amirga yoqmadni. Er va xotin o'rtasida bir kimsaning, garchi otasi tengi bo'lса ham, paydo bo'lgani qaysi erga yoqardi?! Shubhalar ketidan shubhalar... Iroda bo'lса o'ziga nisbatan ishonchu erkinlikni g'oyatda istardi. Adibning yoshlikda sho'xroq bo'lgani ko'plarga ma'lum, bu yaqinlik faqat ijod yo'lidamikan, yoki... Mabodo bu noo'rin rashku shubhalar sezilib qolguday bo'lса, sevikli yorining qattiq ranjishi ham turgan gap. Uning g'ururi tahqirlanmasligi kerak!

Erkinligu ishonch, haqgo'yligu o'ta madaniyatli bo'lmoqlik Irodaxonning ezgu niyati. Amir ham u haqda shunday o'ylardi, ammo o'rtada shayton bor, bu shaytonialayhula'na kimlarni yo'ldan ozdirmagan!? Taniqli adib hali Habibiy domla yoshlari bormagan, qaddi-basti bir qadar kelishgan inson. O'z asarlarida muhabbatni go'zal tarannum etgan san'atkorlardan hisoblanardi.

Iordaning fusunkor ko'zları, ta'rifiqa qalam ojiz qaddu qomati, hozirjavobligi har qanday yigitni maftun etmog'i tayin. Bu go'zal fazilatlar Amirni allaqachon mahliyo etgan edi. Iroda bo'lса, biz o'zbeklar hayoli, oriyatlari insonlarmiz, ota-bobolarimiz, momolarimiz udumini sevamiz. Lekin ozgina ovro'pocha erkinligu ishonch ham eru xotin o'rtasida bo'lса yomon bo'lmasdi, derdi. Hadeb Otello bo'laverish jonga tegmaydimi!? Xotin kishi sevsu, sadoqatli bo'lса, uni yo'ldan ozdiradigan hech qanday kuch yo'q! Zebunisoyu Nodirabeginlar chin muhabbat va hurnlik sohibalari edi, podshoh Umarxon hech vaqt qing'ir xayollarga bormagan. Dini islam nuri yuraklarga pok muhabbatu sadoqat bag'ishlagan. Kumush va Otabekning sevgisi-chi?.. Bular bari Iordaning xayolidan o'tdi.

O'n yettingi mart kuni, kutilmaganda, Toshkentda havo aynib, yog'ayotgan yomg'ir qorga aylandi. Tundagi izg'irin novdalarni muzlatdi. Bodomu ertapishar oq o'riklar chaman bo'lib gullagan, atrofda asalarilar g'uvullab uchayotganda birdan tabiat o'zgardi. Dunyo go'yo muzladni...

Iordaning ustozi hovlisiga qatnashi Amirga yoqmagandi. "Ishqilib, bu ishlar bahordagi muzlash bo'lmasin-da!" - derdi o'ziga o'zi Amir. Charchaganidanmi, nimadandir, bir kuni ko'chadan kelgan Iordaning qaboqlari tagi ko'karganini, tezda uyqu bosganini ko'rganda yuragiga shayton vasvasa solib, yomon xayollarga borgani yodiga tushdi. Xayriyat, bu xayollar puch bo'lib chiqqandi. Ilgari san'atkorlarga, ayniqsa, sarvqomat raqqosalarga tez-tez tosh otadiganlar bo'lardi, bo'rining og'zi yesa ham qon, yemasa ham... Endi yosh shoiralarga ham ba'zida malomat toshlarini otadiganlar paydo bo'ldi. Bulardan Iordaning mutlaqo xabari yo'q, deb bo'lmaydi. Oqsoqol adibning bola-chaqalari borligi, baobro' kishi ekanini Amir yaxshi biladi. Qolaversa, o'z otasi bilan tanishligi, tarixchi professor keksa adib ijodiyotini doimo yuksak baholagani, javonida uning ko'p kitoblari turgani ham esida. Ammo, baribir, seviklisini undan rashk qilar, bu fe'lidan qutulolmasdi.

Bir kuni Iroda yana ustozi xususida to'lqinlanib so'zladi, ayniqsa, uning yangi nashrdan chiqqan kitobiga dastxat yozib bergani Amirni o'ylantirdi. Iordaning sevinchiga sherik bo'lganday ko'ringani bilan xayolan fikri mujmalroq edi. Shu xayoli keyingi paytlarda ko'p namoyish etilayotgan Lotin Amerikasining davomli kinofilmlariga ketdi: bir-birini zulukdek so'rish, o'pichlar, quchoqlashishlar va boshqa holatlar me'yordan ortiq, hatto jonga tegadigan darajada.

"Ha, oz-moz rashk qilmoq ham kerakdir-ov, - derdi Amir, - shu ham bo'lmasa inson kesakka aylanib qolardi". Ammo o'sib kelayotgan navqiron ijodkor uchun ishonchu erkinlik ob-havodek zarur. Buni ham bilardi. Yosh ijodkor erkin qanot qoqmog'i lozim. "Yoshlikda to'yimli ovqatlanib, iligi baqvuvvat bo'lmog'i uchun erkin bo'lmog'i, ko'p narsalarni ko'rmog'i kerak", - derdi ustozerlar. Qancha-qancha iste'dodli o'zbek qizlari yarim yo'lда qolib ketgani bizga ma'lum-ku!

Mukarramxon, Halimaxon, Soraxon opa, Oydin opalar iste'dodu jasoratlari bilan buyuklik shohsupasiga chiqqa olgan san'atkorlardir. Ba'zan bu fikrlar Iordaning qalbidan ham o'tardi.

Ertaga ustozi hovlisida mushoira bo'lishi, unga Iroda ham borajagini, boshqa yosh qalamkashlar-da to'planajagini eriga ma'lum qildi. Bu gapni eshitgan Amir g'alati kulib, xotiniga qarab qo'ysi, bu Irodaga uncha yoqmasa-da, bir nima demay, jim qoldi... U jo'nab ketdi. Shu kuni Amir ham shahar markaziga borib, adib hovlisi atrofidagi bog'da, bir o'rindiqda gazeta o'qib o'tirdi.

"Ishqilib, uni shayton yo'ldan ozdirmagan bo'lsin!"

Mushoira qizib ketdimi, yosh qalamkashlar ancha kech tarqalishdi. Biroq ular orasida Iroda ko'rinnadi. Amirning yuragiga g'ulg'ula tushib, "gurs-gurs" ura boshladi. Hatto adibning hovlisiga kirib chiqmoqchi ham bo'ldi. Oradan yarim soatlaracha vaqt o'tgach, Iroda domlaning kichik qizlari bilan darvoza yonida paydo bo'lgach, uning yuragi taskin topdi. "Nega bunday bo'lib qoldim? - derdi o'ziga o'zi. - Nega xotinimga ishonmayman? Bu o'zi nima?"

Domlaning qizlari xayr-xo'shlashib, ichkariga kirib ketgach, Iroda bilan Amir bir-birlariga noqulay vaziyatda ro'baro' bo'lishdi. Amirning tiliga kelgan gap shu bo'ldi:

- Sog'indim... Nima qilay, kelib o'tiribman... Uzr!..
- E, qo'ysangiz-chi! - dedi rangi oqarib ketgan Iroda o'zini biroz qo'lga olib. - Eski kasalingiz tutibdi-da? Yana o'sha rashku shubhami?!
- Uyda yolg'iz o'tirolmadim. Ishoning! Eringiz oz-moz jinniroq... Majnun qilib qo'ydingiz! Ayb menda emas... - Amir zo'rmazo'raki kuldii.
- Ishonch kerak, janob! - dedi Iroda biroz ginador ohangda va saldan so'ng qo'shib qo'ysi: - Mushoiramiz keyingi safar Samarqandda bo'larkan...
- Biz ham Samarqandga borarkanmiz-da!
- Albatta, borasiz! - dedi Iroda. Shundan keyin u buyuk hind adibi Rabindranat Tagor o'zi tug'ilib o'sgan Kalikata (Kalkutta) shahrida yosh qalamkashlar maktabini ochgani, ingliz mustamlaka siyosati ta'sirida bo'lgan ko'plab iste'dodli qalamkashlar shu mактабда kamol topganini hikoya qildi.
- Uzoqqa bormaylik, - dedi u hayajonlanib, - o'zimizning buyuk ustozi G'afur G'ulom ham qirqinchi, elliginchi, oltmishinchchi yillarda Beshyog'ochdag'i hovlisida qanchalar yosh qalam sohiblariga ustozi qilganini bilamiz-ku! Bu maktabda saboq olgan shoiru adiblarning ba'zilari hozir ham barakali ijod qilmoqdalar!..
- Gaplaringiz rost, Irodaxon, isbotlab berdingiz. Siz bilan bahslashmoqqa ojizman.

Mushoirada "Jannatda turib, yurtimni sog'indim" nomli she'rei ustoza g'oyat yoqqanini faxrlanib so'zladi Iroda. Ustoz Iordaning shu she'reni tinglab, "She'r - shoir qalbida yaralguchi dur" - dil tug'yonni ekanini ta'kidlagani uni ruhlantirib yuborgandi. Iroda o'zida yo'q shod, she'reni yo'l-yo'lakay Amirga ham o'qib berdi:

Ey, dengiz sohillari, men keldim tolib,
Jannatsimon iqlim oldi bag'riga.

This is not registered version of TotalDocConverter
Yulka dan o'sha qiziqarli surʼatda.

Umring oʼxshash boʼlsin, dedi, bahrga.
Asablar yumshadi, yurak joyida,
Issiq saratonning vahshati sindi.
Tetiklik, hayajon-ilhom poyidor,
Buloqlar billuriy shifo suv sundi.
Toʼyib-toʼyib nafas oldim, begʼubor.
Ey, dengiz, ey, togʼlar, ey, javohir qum...
Nimaiki koʼrdim - bu maskanda bor,
Jannat boʼlsa boʼlar shunchalik, dedim.
Shu jannatda turib sogʼindim seni,
Ey, mening qizigan tanti tuprogʼim,
Issiq koʼchalarim, olis qishlogʼim,
Jilov uzar soylar va joʼshqin oqim...
Hammasidan kechib, ayshu safodan,
Oʼzbekiston - yurtim, senga chopaman.
Mening koʼzim bilan koʼrsinlar seni!
Ey, Ona - diyorim, doim boʼl omon!

Vatan tuygʼusi yoshlikdan tugʼilgusidir. Shoirlik - oshiqlik demak. Chinakam shoirlar birinchi galda Vatanni sevadilar, mutasavvuf tariqatida aytiganidek, jonidan ortiq el-yurtni sevganlar komil inson darajasiga yetadilar. Chin muhabbat esa insonga berilgan ilohiy neʼmat. Agar u boʼlimganda ulugʼ Navoiy Layli-yu Shirin, Farhodu Majnunlarni yarata olmas edi.
Er-xotin yomma-yon borishar va shu haqda oʼylashardi. Yakkachoʼp koʼprikka yetganda Amir tisarilib, yoʼl berdi.
- Yoʼq, aka, Siz oʼting avval, yoshingiz katta, - dedi Iroda.

- Yoʼq, siz oldinga oʼting, sizlarni hazrat Navoiy duo qilganlar. Biz aqlu qoʼlimiz bilan bino quramiz, sizlar esa qalb bilan ruhiyat imoratini barpo etasizlar.